



DURING THE TRANSITION TO MARKET EQUILIBRIUM, IT IS NECESSARY TO ENSURE THE UNITY OF THE POPULATION IN THE REPUBLIC

Davlatbek Rakhmonberdiyev

The National University of Uzbekistan

Faculty of History The most recent history of Uzbekistan

teacher of the department

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Youth, employment, historical analysis, unemployment, independence, economy, politics, NGOs, youth are our future.

Received: 21.06.26

Accepted: 22.06.26

Published: 23.06.26

Abstract: The article presents the situation of youth in the early years of independence. The study of youth employment has been important in all periods of human history. Since the first years of independence, creating jobs for young people and ensuring their employment has been one of the main directions of our state policy. Any research that deals with youth issues is multifaceted. The solution of these problems requires the interaction of practitioners and theoretical specialists in the field of local and state administration, sociology, social work, pedagogy. This article focuses on the processes of youth employment, their origin, and the work done.

BOZOR IQTISODIYOTIGA O‘TISH DAVRIDA RESPUBLIKADA AHOLI BANDLIGINI TA‘MINLASH MASALALARI

Davlatbek Raxmonberdiyev

O‘zbekiston milliy universiteti

Tarix fakulteti O‘zbekistonning eng yangi tarixi

kafedrasi o‘qituvchisi

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Yoshlar, bandlik, tarixiy tahlil, ishsizlik, Mustaqillik, Iqtisodiyot, siyosat, nodavlat notijorat tashkilotlar, yoshlar kelajagimiz.

Annotatsiya: Taqdim etilgan maqolada yoshlarga oid mustaqillikning ilk yillaridagi holat aks etgan. Yoshlar bandligi masalasini o‘rganish insoniyat tarixining

barcha davrlarida muhim ahamiyat kasb etgan. Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab yoshlarga ish o'rinlari yaratish, ularning bandlik holati davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan. Yoshlar muammosi bilan bog'liq har qanday tadqiqot ko'p yoqlama xarakter kasb etadi. Zero, mazkur muammolarning yechimi mahalliy va davlat boshqaruvi, sotsiologiya, ijtimoiy ish, pedagogika sohasidagi amaliyotchi va nazariyotchi mutaxassislarining o'zaro hamkorligini talab qiladi. Ushbu maqolada yoshlar bandligi jarayonlari, ularning kelib chiqishi, amalga oshirilgan ishlarga e'tibor qaratiladi.

В ПЕРЕДВИЖДЕНИЕ К РЫНКОВОЙ КОМПЕНСИИ В РЕСПУБЛИКЕ ПРАВИЛА ОБЩЕСТВЕННОСТИ НАСЕЛЕНИЯ

Давлатбек Рахмонбердиев

Национальный университет Узбекистана

Факультет истории Новейшая история Узбекистана

преподаватель кафедры

Ташкент, Узбекистон

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: молодежь, занятость, исторический анализ, безработица, независимость, экономика, политика, НПО, молодежь - наше будущее.

Аннотация: В представленной статье отражена ситуация с молодежью в первые годы независимости. Изучение вопроса занятости молодежи имеет важное значение во всех периодах истории человечества. С первых лет независимости создание рабочих мест для молодежи, обеспечение ее занятости было одним из основных направлений государственной политики. Любое исследование, связанное с проблемами молодежи, имеет многосторонний характер. Решение этих проблем требует взаимодействия практических и теоретических специалистов в области местного и государственного управления, социологии, социальной работы, педагогики. В этой статье будет уделено внимание процессам занятости молодежи, их происхождению, проделанной работе.

Kirish. O'zbekiston 1990-yilda hali mustaqillikni qo'lga kiritmaganligiga qaramasdan mamlakat kelajagi o'sha vaqtda mustaqil hayotga kirib kelayotgan avlodlarga to'g'ridan-to'g'ri

bog‘liq hisoblanardi. Respublika aholisining har uchtdan bittasi 14-30 yoshdagi yoshlar ekanligini e‘tiborga olinsa bu katta ko‘rsatgichni tashkil etardi . O‘sha davr ijtimoiy taraqqiyot jumboqlari va qarama qarshiliklaridan yoshlar ko‘proq jabr ko‘ra boshladilar. Ular ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy va huquqiy masalalardan ko‘proq benasib qilingandilar. Yoshlarni ijtimoiy jarayonlarga va tuzilmalarga kiritish ko‘pgina ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy muammolarni hal etilishiga bog‘liq edi. Davlatni yoshlarga oid tugal siyosati yuq bo‘lgan bir paytda mamlakatda bu muammolarni hal etishda amalda kuchli mexanizm talab qilinardi. Sobiq tuzum olib borgan siyosati va bu davlatning inqirozi kam ta'minlagan yosh fuqarolar solishtirma salmog‘ining ko‘payishiga sabab bo‘ldi.

Muhokama va natijalar. Ijtimoiy tushkunlik siyosiy befarqlikka, o‘smirlarning ko‘pchilik qismi “sosalizm” g‘oyalaridan sovushga olib keldi va natijada yoshlar orasida jinoyatchilik o‘shishiga yo‘l ochib berildi. O‘sha davrda respublikaning asosiy muammosi bu ish bilan ta'minlash edi. Halq ho‘jaligi kompleksida aynish, respublikada ta'lim tarmog‘i yaxshi taraqqiy etmaganligi shunga olib keldiki, qariyb 1,5 mln yoshlar mehnat qilish huquqlaridan ham mahrum bo‘ldi. Uyda va shahsiy tomorqa ho‘jaligida band bo‘lganlarning 50,8% yoshlarni tashkil etardi[1, b.10]. Kasbga puhta o‘rgatmaslik yoshlarni boshlang‘ich imkoniyatini past darajaga tushishiga olib keldi. O‘zbekistonda yigit va qizlarni o‘rtacha oylik maoshi 80-120 so‘m ekanligini inobatga olinsa bu sobiq ittifoqdagi o‘rtacha ko‘rsatgichga nisbatan 50-70 % tashkil etardi[2,b.11]. Ittifoqdagi o‘rtacha ko‘rsatgichga nisbatan olganda respublika yoshlarining moliyaviy daromadi: 48.9 % tashkil etardi.

O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqining 1991-1994 yillar mobaynida o‘tish davrida amalga oshirilgan ishlari yuzasidan bayonat beradi, unda har qanday tashkilotning to‘laqonli faoliyat yuritishida uning tashkiliy tuzilmasi mustahkam bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Sarxisob palatasi bergan ma‘lumotlarga ko‘ra, Ittifoq tizimining umumiy ko‘rinishi saqlanib qolgan holda ayrim kamchiliklarga yo‘l qo‘yildi. Xususan, puxta o‘ylamasdan qo‘yilgan qadam natijasida, ya‘ni hech zarurati yo‘q sharoitda tuman, shahar va viloyat tashkilotlari Nizomlari qabul qilindi. Bu hol bir tashkilot ichida turfa xil tizimlarning paydo bo‘lishi, ishning yanada chigallashuviga olib keldi. Bir yerda tashkilot yetakchisini kotib desak , bir yerda rais dedik, bir yerda byuro bo‘lsa bir joyda kengash. Ittifoq a‘zolarining Yoshi 28 dan 30 yoshga ko‘tarilgan[3,b. 35.98]. O‘zbekistonda 1991-2010 yillar oralig‘ida demografik vaziyatning harakterli qirralaridan biri mehnatga layoqatli aholining mutloq yuqori darajada o‘shishi bo‘lib , bu uning bandligini ta‘minlash muommosini oshiradi. Markaziy Osiyoda O‘zbekiston aholisi eng zich joylashgan mamlakat bo‘lib, uning 36 foiz aholisi shaharlarda, 64 foiz aholisi qishloqlarda istiqomat qiladi[4,b23.120]. Aholining 39 foizini mehnatga layoqatli davrgacha yoshdagilar,54 foizini mehnatga layoqatli va 7 foizini

mehnatga layoqatli yoshdan kata yoshlar tashkil qiladi. Aholi soni 1991 yilda 20857,0 mln 1995 yilda 22684,0 mln, 2000 yilda 24650,4 mln, 2005 yilda 26167,0 mln 2017 yilda2021 yilda..7-yoshdan 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil qildi[5,b.44.168]. Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni jamiyat hayotining barcha sohalarida, ayniqsa mehnat bozori va aholi bandligi tizimida chuqur o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Rejali iqtisodiyot sharoitida davlat tomonidan kafolatlangan bandlik bozor munosabatlariga o'tish davrida o'z ahamiyatini yo'qotib, bandlik masalasi ijtimoiy-iqtisodiy muammo sifatida dolzarb bo'lib qoldi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrining bandlikka ta'sirida quyidagi holatlar kuzatildi:

davlat korxonalarining qisqarishi va xususiy lashtirilishi;

ishlab chiqarish hajmining pasayishi;

yashirin va norasmiy bandlikning kengayishi;

ishsizlikning paydo bo'lishi va ortishi;

mehnat bozorida talab va taklif nomutanosibli.

Bu jarayonlar aholi, ayniqsa yoshlar bandligini ta'minlash masalasini murakkablashtirdi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida Respublikada aholi bandligini ta'minlashda quyidagi muammolar mavjud bo'ldi:

Ish o'rinlarining qisqarishi – sobiq yirik sanoat korxonalarida ishchi kuchiga talab kamaydi.

Kasbiy nomutanosiblik – mavjud mehnat resurslari bozor talabiga mos kelmadi.

Hududiy tafovutlar – qishloq joylarda ish o'rinlarining yetishmasligi.

Yoshlar bandligi muammosi – ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi uzilish.

Norasmiy bandlikning ko'payishi – ijtimoiy himoyaning zaiflashuvi.

Mazkur muammolarni hal etish maqsadida davlat tomonidan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:

bandlikka ko'maklashish markazlarini tashkil etish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish;

kasb-hunar va qayta tayyorlash dasturlarini joriy etish;

yoshlar bandligini ta'minlashga qaratilgan maxsus dasturlar;

mehnat migratsiyasini tartibga solish.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida aholi hususan, yoshlar bandligini ta'minlash murakkab va ko'p qirrali muammo bo'lib, u iqtisodiy islohotlar bilan chambarchas bog'liqdir. Davlatning faol bandlik siyosati, mehnat bozorini rivojlantirish va inson kapitaliga investitsiyalar kiritish orqali mazkur muammolarni bosqichma-bosqich bartaraf etish mumkin.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki bugungi kunda yoshlar deb O'zbekiston Respublikasida mazkur ko'rsatkich 14 yoshdan 30 yoshgacha etib belgilangan. Yoshlarimiz bugun erishgan va ertaga mamlakatimiz taraqqiyoti uchun zamin bo'ladigan maqsadlar bilan yashayapti. Ular amalga oshirayotgan jasorat namunalari haqida minglab misollarni keltirish mumkin. Mustaqillik sharofati bilan tiklangan ma'naviy merosimizni o'rganishda, urf-odatlarimizga rioya etishda, mutafakkir va allomalarimiz bilan faxrlanishda, o'z davlati madhiyasini kuylashda, millat bayrog'idan g'ururlanishda, ajdodlarga armon bo'lgan, avlodlarga in'om bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash – bizning oliy maqsadimiz. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2009. T.17. – B.131.
2. O'zR MDA M 69-jamg'arma, 1-ro'yhat, 107-ish, 11-varaq
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasining joriy arxivi. 1991-2021 yil ma'lumotlari. <http://www.stst.uz>.
4. O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatiga doir huquqiy-me'yoriy hujjatlar (I qism). – T: “O'zbekiston” NMIU, 2017
5. T.Alimardoniov “Ozodlikda ulg'aygan avlod” <http://www.biznes-daily.uz>
6. O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida”gi № 429-XII qonunin http://www.lex.uz/search/all?form_id=3968&fyear=1991
7. L.Tangriyev. “Yoshlar siyosat subyekti: bandlik muammosi” nomli nomzodlik dissertatsiyasi. Avtoreferat. Toshkent: 2001 yil.